

БИОЛОГИЯ СЕМЕЙСТВА КЛЕНОВЫХ

MAPLE MOON BIOLOGY

<https://doi.org/10.5281/zenodo.12909478>

Anvarbekov Islombek

Miraliyeva Xabiba

Mahkamov Turobjon

Annotatsiya: chinordoshlar oilasi vakillari O'zbekistonda o'sadigan ikkala vakili ham daraxt shakliga ega yirik shox –shabbali uzoq yil umir ko'ruvchi tez usuvchi hisoblanadi. Chinorlar bir uyli daraxt o'simligi hisoblanadi. Mevalari dumaloq, sharchalar shaklida, ular sentyabr–oktyabr oylarida pishib yetiladi va bahorgacha daraxtda saqlanadi. Bahorda ular atrofga shamol yordamida tarqaladi. Chinorning urug'lari mayda, 1 kg urug'da 140 – 150 ming dona urug'lar bo'ladi. Markaziy Osiyoda quyidagi chinor turlari tarqalgan.

Аннотация: представители семейства кленовые оба представителя, произрастающие в Узбекистане, являются долгоживущими быстрорастущими кустарниками с крупными ветвями, имеющими древовидную форму. Клены-однодомное древесное растение. Плоды круглые, шаровидные, созревают в сентябре–октябре и хранятся на дереве до весны. Весной они распространяются с помощью ветра. Семена подорожника мелкие, в 1 кг семян будет 140 – 150 тыс. штук семян. В Средней Азии распространены следующие виды клена.

Annotation: representatives of the plantain family both representatives of the plantain family growing in Uzbekistan are fast –growing long-year umir seers with a large branch-shaped tree. Plantains are a monoecious arboreal plant. The fruits are round, spherical, they ripen in September–October and are stored on the tree until spring. In the spring, they spread around with the help of the wind. Plantain seeds are small, in 1 kg of seeds there will be 140 – 150 thousand seeds. The following plantain species are distributed in Central Asia.

Kalit so'zlar: chinor, turkum,tur, oila, urug', meva, daraxt, barg, novda, poya, yong'oq, yog'och, ildiz, qalamcha.

Ключевые слова: клен,род, род, семья, семя, плод, дерево, лист, сорт, стембель, орех, дерево, корень, черенок.

Keywords: Maple, category, species, family, seed, fruit, tree, leaf, variety, stem, nut, wood, root, pencil.

Chinordoshlar (Platanaceae) oilasi faqat bir turkumdan – Chinor (Platanus) turkumidan iborat bo'lib, uning vakillari yopiq urug'lilarning eng qadimiy turlaridan biri hisoblanadi. Chinorlar tez o'sishi bilan ajralib turadi, ular 30–40 m balandlikkacha o'sib tekis rivojlangan tanasiga ega bo'ladi. Barglari yirik, shakliga ko'ra zarang barglariga o'xshash. Chinorlar bir uyli daraxt o'simligi hisoblanadi. Mevalari dumaloq, sharchalar shaklida, ular sentabr–oktabr oylarida pishib yetiladi va bahorgacha daraxtda saqlanadi. Bahorda ular atrofga shamol yordamida tarqaladi. Chinorning urug'lari mayda, 1 kg urug'da 140 – 150 ming dona urug'lar bo'ladi. Markaziy Osiyoda quyidagi chinor turlari tarqalgan.

Chinor (Platanus) — chinordoshlar oilasiga mansub barg to'kuvchi o'simliklar turkumi 10 turi ma'lum. Shimoliy Amerika (Kanadadan Meksikagacha), Janubiy Sharqiy Yevropa va O'rta dengiz bo'yi mamlakatlaridan Hindi-xitoygacha bo'lgan hududda tarqalgan. Kavkaz, Qrim, O'rta Osiyoda sharq chinori (*P.orientalis*), Janubiy Ukraina, Qora dengiz sohillari, shuningdek, O'rta Osiyoda Shimoliy Amerikadan keltirilgan g'arb chinori (*P.occidentalis*) turlari o'stiriladi. Sharq chinori yovvoyi holda o'sadi. Shox-shabbasi qalin, bo'yi baland (50 m gacha), tanasi baquvvat (aylanasi 18 m gacha), silindrsimon, po'stlog'i sarg'ishroq.

O'zbekistonda manzarali chinorning har ikki turi o'sadi. Novdalari va barglari yoshligida tukli, keyinchalik tuklari to'kilib ketadi. Barglari yirik, asosan, 3 (ba'zan 7) bo'lmal. Mevasi dumaloq, dag'al tukli yong'oqcha, diametri 1,5 sm, meva bandida 2—5 tadan o'rnashgan, uzoq vaqt to'kilmaydi. Aprelda gullab, mevasi may - sentabrda yetiladi. Chinor, ayniqsa, yoshligida tez o'sadi. Qulay sharoitda 2000-yil va undan ham ko'proq yashaydi. Egey dengizidagi Krit orollarida tanasi aylanasi 18 m bo'lgan 2300-yillik chinorlar bor. Surxondaryo, Namangan va Samarqand viloyatlarida 600—800 yoshli chinorlar uchraydi.

Chinor urug'ini ekib, qalamchasidan va ildiz bachkilaridan ko'paytiriladi. Chinorning yog'ochi yengil, pishiq, mebel sanoatida qadrlanadi. Uning yog'ochidan o'zbek me'morligida qadimdan foydalanib kelingan. Sharq chinori (*Platanus orientalis* L.) Bu chinor turi chinordoshlar oilasining eng muhim turlaridan biri hisoblanadi. 1753-yilda buyuk botanik olim K.Linney birinchi bor ikkita chinor turini ilmiy tavsiflab bergan. Keyingi yillarda sharq chinorining areali kengayishi kuzatilmoqda, chunki u ko'plab madaniy holda ko'kalamzorlashtirish maqsadlarida va yog'ochi uchun o'stirilmoqda. O'zbekistonda yovvoyi chinor Qashqadaryo viloyati Palandara daryo havzasida o'sishi qayd etilgan. Chinor turlari meva bandidagi sharsimon mevalari soniga ko'ra ajratiladi. Agar bitta mevasi bo'lsa, g'arb chinori, 1-3 mevalari bo'lsa zarangbargli chinor, 3-7 mevasi bo'lsa sharq chinoriga tegishli bo'ladi. Urug'lari cho'zinchoq, uzun meva bandida osilib turadi. Daraxtlardagi sharchalar butun qish davomida daraxtda osilib turadi va bahorda alohida urug'larga ajralib atrofga shamol yordamida sochilib ketadi. Sharq chinorini o'sish areali Kichik Osiyo, O'rta yer dengizi atroflari, Sharqiy Kavkaz, Eron va Afg'oniston hududlarini o'z ichiga oladi. O'zbekiston janubida Hisor tog'larida (To'polang daryosi havzasi) chinorning tabiiy kichik o'rmonlarida uchraydi.

Sharq chinor soya beruvchi daraxt sifatida shahar va qishloqlarni ko'kalamzorlashtirishda uzoq o'tmishdan boshlab keng foydalanib kelingan, mahalliy aholining yog'ochga bo'lgan talabini chinorning sifatli uzoq saqlanuvchi yog'ochi hisobiga qondirilgan. Balandligi 40 m gacha bo'lib, diametri 3-4 metrgacha o'sadi. Chinor uzoq umr ko'radi, respublikamizda uning 800–1000 yoshli daraxtlari mavjud. Sovuqqa o'rtacha chidamli, MDH ning Yevropa qismida sovuqdan zararlanadi, shu sababli uni sovuq mintaqalarda ekish cheklangan.

G'arb chinori (*Platanus occidentalis* L.) SHimoliy Amerikaning Atlantika qismida keng tarqalgan, u erlarda tabiiy kichik o'rmonlar hosil qiladi. Rossiyada 1800 yillarda ko'kalamzorlashtirish maqsadlarida introduksiya qilingan va shaharlarda o'stirilmoqda, 30–40 m balandlikka va 1-2 m diametrga ega yirik daraxt, o'tkir uchli manzarali barglari daraxtda uzoq saqlanadi. Ko'kalamzorlashtirishda foydalanish uchun istiqbolli tur hisoblanadi, Janubiy Ukraina va Qrimda, ayniqsa, Odessa shahrini ko'kalamzorlashtirishda ko'plab ekilgan, sovuqqa o'rtacha chidamli. O'rmon melioratsiyasida ham keng foydalaniladi. Ushbu turlardan tashqari O'zbekiston sharoitlariga zarang-bargli chinor (*Platanus acerifolia* (Ait.)Willd.) turi introduksiya qilingan va ko'kalamzorlashtirishda keng foydalaniladi.

Chinor daraxti qulay sharoitda 2000-yil va undan ko'proq umur ko'rishi mumkin. Respublikamizning ayrim hududlarida, Namangan viloyatining Kosonsoy tumanida 800 yillik chinor daraxti qad rostlab turibdi. Hozirgi kunlarda Chinor daraxtidan ko'kalamzorlashtirish ishlarida foydalanish sezilarli darajada kamaygan.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki chinordoshlar oilasi vakillari bo'lgan chinor daraxtini manzarali o'simlik sifatida ekishimiz muhim va dolzarb ahamiyatga ega.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

- 1.O'zbekiston milliy ensiklopediyasi (2000-2005) ma'lumotlaridan foydalanilgan.
- 2.Pratov O', Shamsuvaliyeva L., Sulaymonov E. va bosh. Botanika (morfologiya, anatomiya, sistematika, geobotanika). – Toshkent: "Ta'lim nashriyoti", 2010. –288 b.
- 3.Тимонин А.К. Ботаника. В четырех томах. Т.3. Высшие растения. – М.: Издательский центр «Академия». 2007.- 352 с.
- 4.Тимонин А.К., В.Р. Филин. Ботаника. В четырех томах. Т.
5. Книга 1. Систематика высших растений. – М.: Издательский центр «Академия». 2009.- 320 с.
- 6.Тимонин А.К., Соколов Д.Д., Шипунов А.Б. Ботаника. В четырех томах. Т.4. Книга 2. Систематика высших растений. – М.: Издательский центр «Академия». 2009.- 352 с.
- 7.Мустафаев С.М. Ботаника. – Тошкент: "Ўзбекистон", 2002. - 472 б.